

Creative Spark: Oliy ta'lim korporativ dasturi



“Creative Spark” - oliy ta'lim korporativ dasturining maqsadi quyidagilardan iborat: ijodkorlikka asoslangan tadbirkorlikni yo'lga qo'yish madaniyatini vujudga keltirishda oliy ta'limning o'рни va mavqeini oshirishga qaratilgan qo'shma loyihalarni tuzishdan iborat. Ushbu loyiha dunyoning 7 ta mamlakati (O'zbekiston, Gruziya, Ukraina, Qirg'iziston, Qozog'iston, Armaniston va Buyuk Britaniya)dan 120 ishtirokchidan iborat guruhni o'z ichiga oladi. Loyihadan ko'zda tutilgan maqsad ishtirok etayotgan davlatlar faoliyatini Buyuk Britaniya misolida milliy siyosat, strategiyaga oid dasturlarni ishlab chiqish, universitetlar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda dasturni amalga oshirish hamda kelgusida muxokama etiladigan mavzularni kelishib olishdan iborat.

Loyiha doirasida hamkorlikda quyidagi tadbir va loyihalar muhokama qilinadi:

1. Hamkorlikdagi universitetlar o'rtasida turizm sohasidagi turli loyihalar doirasidagi sherikchilik faoliyatlari va manfaatlarini ko'zda tutilgan ilmiy tadqiqotlarni bajarish rejasini ishlab chiqish;
2. Turistlarni qabul qilish bilan bog'liq jarayonlarni tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda marketing va boshqaruvga oid masala va muammolarni birgalikda hal qilish;
3. Xalqaro hamkorlikka asoslangan eng yaxshi tajribasini almashish;
4. Ishtirokchi mamlakatlar talabalarini o'rtasidagi raqobat metodologiyasini muvofiqlashtirish;
5. Ishlab chiqilgan dasturlarning yetti mamlakatda joriy etilgan siyosat va uning tarmoqlaridagi tahlillarini muhokama qilish.

“Creative Spark” hamkorligidagi loyixalar turli sheriklik modellari asosida taqdim etiladi. Ularning hisobotlari Silk Road universiteti taqdim etgan ma'lumotlarga asoslangan holda monitoring qilinadi va baholanadi.

Ko'pincha dastur ishtirokchilari tomonidan o'tkazilgan veb-seminarlar, dasturning amalga oshirilishi va rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Loyihada, shuningdek, uning ish rejalari va ularni amalga oshirish bosqichlari, shu jumladan, mehnat bozorini o'rganish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlash, yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, talabalar o'rtasida ijodiy fikrlash va tadbirkorlikning ijodiy qudrati tanlovlarini tashkil etish va boshqa ko'plab tadbirlarni ishlab chiqiladi.

Ushbu grant doirasida ingliz tilini o'rganish uchun Urganch davlat universiteti y'qituvchisi Baxtiyor Ruzimetov rahbarligidagi 200 nafar, Buxoro davlat universiteti dotsenti Abror Jo'rayev rahbarligidagi 100 nafar, Samarqand davlat universiteti professori Baxtiyor Safarov rahbarligidagi 100 nafar talaba bilan aloqa y'rnatildi. Ingliz tilini o'rganish uchun asbob-uskunalar hamda majmualar to'plami yaratildi va loyiha ijrosi sifatida uning natijasi yuqorida qayd etilgan talabalar y'rtasida sinab k'yirish platformalari yaratildi va eng yaxshi innovatsion g'oyalar tanlovi e'lon qilindi. Loyiha ishtirokchi davlatlar (Gruziya, Ukraina, Qirg'iziston, Qozog'iston, Armaniston, Buyuk Britaniya va O'zbekiston) ishtirok etgan 35 ta tashkilotlarning orasida "Start-up" boshlandi.

Loyihada, shuningdek, uning ish rejalari va ularni amalga oshirish bosqichlari, shu jumladan, mehnat bozorini o'rganish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlash, yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, talabalar o'rtasida ijodiy fikrlash va tadbirkorlikning ijodiy qudrati tanlovlarini tashkil etish va boshqa ko'plab tadbirlarni ishlab chiqiladi.

Birinchi tanlov natijalari mart oyida ma'lum bo'ladi.